


TONG Yulduzi

№2 (66387)
2003 yil
13 yanvar
dushanba
Sotuvda
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi
Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqq boshlagan.

14 yanvar - Vatan himoyachilari kuni



Bundan olti yil avval ayrim maktablarda harbiy- sport sinflari tashkil etildi. Ushbu sinflarga jismonan sog'lom, baquvvat va albatta intizomli o'g'il bolalar qabul qilindi. O'quvchilarga fanlarni puxta o'rgatish bilan birga harbiy ta'lim, qo'l jangi, dzyudo kabi sport mashg'ulotlari fan sifatida jadvalga kiritildi. Mana shunday harbiy- sport sinflari poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi 225 - maktabda ham tashkil etildi. Vatan himoyachilari bayrami arafasida ilk bora harbiy ta'lim olishga bel bog'lagan 7- «Ye» sinf o'quvchilarining Vatan haqidagi fikrlari bilan ham qiziqdim.

o'rganishdir, -qo'shimcha qildi **Iskandar ODILOV.**

-Hatto egnimizga kiygan harbiy maktab formamiz ham atrofdagi

yerimizni, oilamiz va mahallamizni yomonlardan, yomonliklardan asraydilar. Shuning uchun ham Vatan tinchligi- harbiy qudrat bilan deymiz-da.

VATAN KELAJAGI YOSHLAR QO'LIDA

- Men harbiy-sport sinfida o'qiyotganimdan faxrlanam. Harbiy ta'lim olish jarayonida hamma narsadan ko'ra ko'proq Vatan azizroq ekanligini tushunib yetdim. Men ham o'z Vatanimni, kindik qonim to'kilgan yurtimni ko'z- qorachig'idek asrashga harakat qilaman. Buning uchun esa harbiy bilimni mukammal o'rganishga, fanlarni chuqur egallashga intilaman, deydi **Shahriyor MINGBOYEV.**

- Ustozlarimiz qayta- qayta takrorlashadi: Vatanni bilim va mehnat obod qiladi. Uning kelajagi, qudrati yoshlar qo'lida, deb.

Ushbu maktabga qilgan tashrifimdan so'ng jonajon Vatanimiz, Mustaqil O'zbekistonimizning fidoiy va sadoqatli himoyachilari safiga yana o'nlab, yuzlab vatanparvar yoshlar qo'shilayotganiga amin bo'ldim. Xayolinga beixtiyor alloma shoirimiz G'afur G'ulomning ushbu misralari keldi:

**Yigitlar Vatanning tayanchi, ko'rki,
Yigit omon bo'lsa, qo'rg'on salomat.
Haqiqatan ham, xalqimizning tayanchi va suyanchi bo'lgan askar yigitlarimiz omon bo'lsin.
Bayramingiz muborak!**

Feruza SOYIBJON qizi.

JASORAT MAKTABI

MUQADDAS BURCH

- Vatanga sodiqlik muqaddas burchdir. Burchni ado etish esa mukammallikdir.

Har bir inson avvalo Vatani oldida, qolaversa, o'z qadri oldida burchdordir. Biz harbiylar olamiga kirib borarekanmiz, Vatanimiz taqdiri bizning taqdirimiz ekanligini chuqur tushunib boramiz.

Ayni bayram kunlari yigitlik burchini o'tayotgan askar akalarimga sabr-toqat, omonlik tilayman. Zero, harbiy xizmatni o'tash, yurtimiz sha'nini qo'riqlash demakdir, - deydi **Yodgorbek MUSAKOV.**

MAQSADIMIZ YAGONA

- Harbiy mahorat chiniqishdan kelib chiqadi. Biz o'g'il bolalar hozirdanoq chiniqib borishimiz lozim. Buning uchun esa maktabimizda sport mashg'ulotlari jiddiy olib boriladi. Ustozlarimiz ham o'ta talabchan, - deydi faxr bilan **Zokir ABDUHAFIZOV.**



- Ular boshchiligida tez- tez sport tengdoshlarimizga yurish- turishimiz, musobaqalari o'tkaziladi. Har olti oyda bilimimiz bilan ibrat bo'lishimiz kerakligini

ASKARGA MAKTUB

- Yigit bo'lib, yigitlik,
- Burchingizni ado eting.
- Ona yurt tinchligi- chun,
- Joningiz fido eting.
- Qalbingizda bo'lmasin,
- Aslo yomonlik, g'ubor.
- Dilingiz tark etmasin,
- Yaxshilik aziz askar.



Madinabonu XAYDAROVA,
Namangan viloyati, Uchqo'rg'on tumani,
14- o'rta maktabning 7- «B» sinf o'quvchisi.

Qo'ldan bermay kurashing,
Tinchlikning bayrog'ini.
O'lloh o'zi asrasin,
O'zbekim o'g'lonini.
Yurt uchun kurashmoqni,
Muqaddas g'oya bilib.
Yurtimizni asrangiz,
Harbiy qasamyod qilib.

belbog' uchun imtihon topshiramiz. Ilk imtihonimiz yanvar-fevral oylarida bo'lib o'tadi. Qishki ta'til kunlarida ham qo'l jangi, dzyudo kabi jangovor mashg'ulotlar bilan shug'ullandik.

Biz sinfdoshlarning maqsadi yagona. U ham bo'lsa, kelgusida Vatanimizga halol xizmat qilish.

QAT'IY INTIZOM KERAK

- Biz o'quvchilarni chuqur va mukammal bilim olishimiz, jismonan sog'lom bo'lishimiz uchun maktabimizda barcha sharoitlar muhayyo. Bizning vazifamiz faqat o'qish,

eslatib turadi. Shunday ekan harbiy bilim bizdan - bo'lajak Vatan himoyachilaridan bilimdonligu, qat'iy intizomni talab qiladi.

ONA KABI QADRLI

- Vatan - arabcha so'z bo'lib, ona yurt degan ma'noni anglatadi. Shu sababdan ham Vatan so'zi hamisha ona so'zi bilan yonma-yon yuradi. Shoir aytganidek,
**Bisyor bo'lsa agar bol ham beqadr,
Takror aytilganda rangsizdir kalom.
Bu yorug' dunyoda Vatan bittadir,
Bittadir dunyoda ona degan nom.**
Ha, chindan ham onamizdan ulug'roq, mo'tabarroq zot bo'lmaganidek, Vatandan azizroq, qadrliroq so'z yo'q, - deydi **Sanjar ALIMQULOV.**

- Mana shu aziz Vatanning o'z himoyachilari, posbonlari bor. Ular bizni,

Maktublar, maktublar, maktublar

Qo'y eng beozor jonivor ekanligini hammamiz bilamiz. Keling, qo'y haqida ayrim ma'lumotlar bilan tanishaylik.

va Qozog'istonning janubida boqilar ekan.

BEOZOR JONIVOR

Qo'ylar bundan 8 ming yil ilgari xonakilashtirilgan. Qo'y chilik yengil sanoat uchun qimmatli xom-ashyo jun, teri, mo'yna beradi. Qo'ydan oziq-ovqat mahsulotlari (go'sht, yog', sut) olinadi. Qo'ylarning xilma-xil zotlari junining sifatiga ko'ra mayin junli, chala mayin junli va dag'al junli zotlarga ajratiladi.

Mayin junli qo'ylarning juni (8-10 sm) tivitdan iborat bo'lar ekan. Mayin jundan nafis

gazlamalar to'qiladi. 7-sinf zoologiya kitobidagi ma'lumotlarga qaraganda, bunday qo'ylar Shimoliy Kavkaz



Qorako'l qo'ylarining Vatani Buxoro hisoblanadi. Qorako'l terisi 1-3 kunligida so'yilgan qorako'l qo'zilarining terisidir. Go'sht, yog' uchun boqiladigan qo'ylar O'zbekistonda Hisor qo'ylar deb ataladi. Bunday qo'ylarning juni kalta va dag'al turiga kiradi.

Munisa

UBAYDULLAYEVA,
Yunusobod tumanidagi
97 - maktabning
5- «B» sinf o'quvchisi.

MAKTUBIM YETIB BORARMIKAN MISH...

Qo'limga qalam olamanu o'ylanib qolaman. Agar maqola yozsam yoki boshqotirma tuzsam-da, sevimli gazetamga jo'natsam yetib borarmikan? Uni chop etisharmikan, degan o'y menga tinchlik bermaydi. Ehtimol pullikdir deb hadiksirab yuruvdim. Ustozim menga barchasini tushuntirib berdilar.

- «Tong yulduzi» senga o'xshash bolalar va o'smirlar gazetasi. Agar ijod qilmoqchi bo'lsang, maqola yozsang yoki boshqotirmayu test savollarini tuzsang, adabiyot o'qituvchingga bir ko'rsatib ol. Keyin gazetada ko'rsatilgan manzil bo'yicha yuboraver. Xating albatta yetib boradi. Agar puxta yozilgan bo'lsa, albatta chop etishadi. Lekin sen bitta xat bilan cheklanib qolma. Yozgan maqolalaring ham borgan sari mukammallashib boraveradi, qalaming charxlanaveradi, - dedilar.

Yaxshiyamki ustozimdan so'raganim. Bo'lmasa xat yozmay yuraverarkanman. Keyingi maktubimda o'zim yozgan hikoyamni qog'ozga tushiraman. Hozircha u xom.

Salom bilan, **Elzora ERGASHEVA,**
Surxondaryo viloyati, Sho'rchi tumani,
Oxunboboyev jamoa xo'jaligi, Kultepa qishlog'i.



Mana maktab o'quvchilarining qishki ta'tillari ham o'z nihoyasiga yetdi. Bu davrda an'anaga aylangan tumanlararo qishki olimpiadalar bo'lib o'tdi.

Bizning maktabda ham 15 nafar o'quvchilar turli

OLIMPIADA SABOG'I



fanlar bo'yicha o'z bilimlarini imtihondan o'tkazdilar.

O'quvchilarni qishki olimpiadaga tayyorlashda maktabimiz o'qituvchilarining ham xizmatlari katta bo'ldi. Ayniqsa, Gulnora Abdullayeva, Mastura Yo'ldoshevalarning

o'quvchilari maktabimiz sha'nini ko'tarishga harakat qildilar. Jumladan, huquq fanidan maktabimiz o'quvchisi Abdurahim Abduhalilov ikkinchi o'rinni, rus tili fanidan esa Shirin G'oipova uchinchi o'rinlarni egallashdi.

Qishki olimpiada biz o'qituvchilarga o'quvchilarimiz bilan yanada ko'proq ishlashimiz kerakligini yana bir bor eslatib o'tdi.

Dilorom ABDURAHMONOVA,
Shayxontohur tumanidagi
20 - maktabning ilmiy bo'lim mudiri.



SPORT MAYDONCHASI



Yaqinda maktabimizda o'quvchi qizlar o'rtasida «Sport maydonchasi» nomli musobaqa bo'lib o'tdi. Uni maktabimizning jismoniy tarbiya muallimasi Guli Erejepova olib bordilar. Qizlar yugurish, uzoqqa sakrash, disk otish kabi shartlar bo'yicha kuch sinashdi.

Undan tashqari

gimnastikadan ham mashg'ulotlar bo'ldi. Musobaqa yakunida faxrli birinchi o'rinni Mavluda Murodova, ikkinchi o'rinni Guloyim Aliyeva oldilar. Qolgan ishtirokchilar uchun o'ringa loyiq deb topildilar.

Bibimaryam XO'JANOVA.

«Kitob o'qigan o'zar, kitob o'qimagan to'zar» degan naql juda to'g'ri. Kitobga oshno bo'lgan ko'ngil, so'z gavharlarini

KITOBSEVARLAR KO'PAYSIN

teradi, bilimi boyiydi. Men dugonam Bibimaryam bilan maktab kutubxonasi xazinasining adog'iga yetib bo'ldik. Kutubxonachi opamiz ham bizga

yangi-yangi kitoblarni yetkazib turishga harakat qiladilar. Yaqindan boshlab esa biz tumandagi 1-sonli kutubxonaga a'zo bo'ldik. U yerda turli mavzularga oid kitoblar juda ham ko'p ekan. Biz kitoblarni olib, mutolaa qilib bo'lgach, sinfdoshlarimizga ham maslahat beryapmiz. Kitobsevarlar borgan sari kengayyapti.

Nazira QAYIPBERGANOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi,
Xo'jayli tumanidagi 57-o'rta maktabning
8- «B» sinf o'quvchisi.

Yurt posbonlari. Ular Vatanimiz tinchligini ta'minlaydilar. Kerak bo'lsa, shu yurt uchun, el uchun jonlarini ham berishga tayyorlar.

Shunday ekan, ularni har qancha maqtasak, e'zozlasak

AKAJONIM - POSBONIM

arziydi.

Ertaga - Vatan himoyachilari kuni nishonlanadi. Fursatdan foydalanib, ushbu she'rimni askar akamga bag'ishlayman.

Bolalik ortda qoldi,

Dastingizdan to'p holdan toldi.

Yo'lingizga nur sochdi osmon,

Akajon, bugun siz posbon.

Qo'lingizda xalqimiz baxti,

Ado eting yigitlik ahdin.

Nasib ko'rdi bu baxtni Rahmon,

Akajon, bugun siz posbon.

Nigora ESHIMOVA,

Toshkentdagi arab tiliga

ixtisoslashgan 29 - maktab o'quvchisi.

14 yanvar - Vatan himoyachilari kuni

Har bir xalqning mard, o'ktam va chin o'g'lonlari bo'ladi. Xalqimizning ham shunday o'g'lonlari borligidan qalbimiz faxrga to'ladi. Mana shunday mard yigitlar bayramini katta xursandchilik bilan

O'G'IL BOLA - MARD BOLA

kutib olamiz.

Ayni paytda yigitlik burchini o'tayotgan akalarimga bayramingiz muborak bo'lsin, degim keladi.

Osoyishta tunimiz

Sababchisi posbonlar.

Hormang, deymiz ularga,

Askar, o'ktam o'g'lonlar.

Nargiza MUHIDDINOVA,

Toshkent shahar,

Akmal Ikromov tumanidagi

116 - maktabning 6- «A» sinf o'quvchisi.

Ikki tomchi suvdek bir-biriga o'xshaydigan ikkita qorqizni ko'rganmisiz? Men ko'rganman. «Qayerda?» deysizmi? «O'zko'rgazmasavdo» saroyida. Bir juft qorqizni bobosi Qorbobo ham ajrata olmay qoldi.

BIR JUFT QORQIZ

tomoshabinlardan iltimos qilgan edi, bolajonlar haqiqiy qorqizni ko'rsatishdi. Qalbaki qorqiz Adelina tarafida edi. Yovuzlik malikasi Adelining qora qizi qorqiz kiyimini kiyib olgan edi. Undan tashqari yana bir qancha yovuz kuchlar sahna tomon kelayotgan edi, sehrli dutor kuyi ta'sirida ortga chekinishdi. Ular bolajonlardan kechirim so'rab, yaxshilik qilishga va'da berishdi.

Sahna o'rtasiga o'rnatilgan ko'm-ko'k archaning rang-barang chiroqlari yonib, ertak tugagach, konsert bo'ldi, unda Avazbek Olimov, «San'at», «Yoshlik» guruhlari ishtirok etdi. Tomoshabinlarga esa «TUFIN» qo'shma korxonasi qandolat mahsulotlari ulashildi.

Shahnoza OYDINOVA,

O'zDJTU, xalqaro jurnalistika,

1-bosqich talabasi.

2003 yil - Obod mahalla yili

O'zbekiston Konstitutsiyasining 11 yilligi arafasida eng obod va eng namunali mahalla Respublika ko'rik-tanlovi o'tkazildi. Ushbu ko'rik-tanlovda Respublikamizdagi 11500 ta mahalla ishtirok etdi. Birinchi o'rin Toshkent shahar, Hamza tumanidagi Ahmadjon Nazarov mahallasiga nasib etdi.

Eng obod va eng namunali deb tan olingan Ahmadjon Nazarov mahallasi 1968 yilda tashkil etilgan. Mahallaga ilk bora ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Ahmadjon Nazarov boshchilik qilgan.

Mustaqillikka erishilgandan so'ng, mahallaga Ahmadjon Nazarov nomi berilishi lozim deb topildi.

Bugungi kunda mahallada 430 nafar xonadon istiqomat qiladi. Ular bir-birlari bilan ahil, ittifoq. Ko'plab tadbirlar, bayramlar, kechalar o'tkaziladi. Shanbaliklar uyushtiriladi.

Barchasida mahalla a'zolari faolishtiroketadi.

To'rt yil muqaddam fermer, tadbirkor Sobir xoji ota Komilov mahalla fuqarolar yig'ini oqsoqoli etib tayinlandilar. Ularning

tinimsiz harakatlari bois mahalla yanada obod bo'la boshladi. Bunyodkorlik ishlari avj oldi.

- Sobir xoji Komilov birinchi navbatda qurilishga, obodonchilik ishlariga e'tibor berdi. Mahalla idorasi qayta ta'mirlanib, qo'shimcha bino barpo etildi. Shohsanam

katta ko'chasida 200 metrli tashlandiq joy, ya'ni chiqindixonona bor edi. Ro'parasida esa 425-bolalar bog'chasi hamda 230-maktab joylashgandi. Bolalar maskani atrofi chiqindiga aylantirilgani ko'pchilikning asabiga tegardi. Mana shu joy tekislanib, ikki mingdan

yerda mahalla bolalari bemalol sport mashg'ulotlari bilan shug'ullanadilar.

Darvoqe, mahallamizning uchta guruh futbol jamoasi bor. O'tgan yillari 9-11 yoshlilardan iborat bo'lgan guruh bolalari tumanda o'tkazilgan mahallalararo futbol musobaqasida birinchi o'rinni oldi. 2002 yilda esa 16

yoshlilar guruhi shahar bo'yicha birinchi va Respublikada ikkinchi o'rinni olib qaytishdi, - deya quvonib gapirib berdilar

Ahmadjon Nazarov mahalla fuqarolar yig'ini kotibi Qobil ota Tolipov.

Ha, chindan ham mahallada bolalarga katta e'tibor beriladi. Ularning yurish-turishi, tarbiyasi doimo kattalar e'tiborida. Bolalarning miriqib dam olishlari uchun ham kerakli sharoitlar yaratilyapti.

Yaqinda mahalla bolalari archa atrofiga yig'ilib, Qorbobo va Qorqiz bilan birgalikda Yangi yilni quvnoqlik bilan kutib oldilar. Bolajonlar uchun tayyorlangan 800 ta yangi yil sovg'asi ularni yanada xursand qildi. Hatto 100 nafar qo'shni mahalla bolalari ham Qorbobo sovg'asidan benasib qolmadi.

Albatta bunday yaxshi ishlarining barchasida Sobir xoji ota hamda mahalla faollarining mehnati kattadir.

Mahalla keyingi paytlarda ko'pgina tanlovlarda g'oliblikni qo'ldan bermay kelyapti. Toshkent shahar Ichki Ishlar Boshqarmasi tomonidan o'tkazilgan tekshiruvda eng tinch aholi deb Ahmadjon Nazarov mahallasi topildi. 2002 yilda esa favqulotda vaziyatda xizmat qilish bo'yicha eng namunali mahalla deb tan olindi.

Ahmadjon Nazarov mahallasidan qo'shni mahallalar ham ibrat olsa arziydi. Zero, elga xizmat oliy himmatdir. Himmatlilar esa hamisha qimmatlidir.

Feruz ODILOVA.

HIMMATLILAR QIMMATLI

OLTIN OLMA, DUO OL

Men 1975 yildan beri Ahmadjon Nazarov mahallasida yashayman. Uch farzandning onasi, olti nafar nevaraning buvijonisiman.

Mahallamizda yaxshi odamlar juda ko'p. Ular bilan birgalikda har bir bayramga katta tayyorgarlik ko'rib, xursandchilik bilan o'tkaziladi.

Mana yaqinda mahallamiz boshchiligida «Archa bayrami» bo'lib o'tdi. Men ham ikki nevaram - Nozima va Muxlisalar bilan bayramga keldim. Bu bayram farzandlarimiz qatori kattalarga ham birdek xursandchilik olibkeldi.

Buning uchun mahallamiz oqsoqolidan juda minnatdormiz. Ular haqida faqat yaxshi gaplarni aytishimiz mumkin. Barcha ishlari mahalla obodonchiligiga, insonlarga mehr ulashishga qaratilgan. Oltin olma, duo ol, degan naql oqsoqolimizning shiori desam mubolag'a bo'lmaydi.

Mavluda SAIDOVA.

ortiq qizil atirgul ekildi. Ming tup terak o'tkazildi. Organi esa atrofdagi shifoxonaga, maktab va bolalar bog'chasiga tarqatildi.

Bundan tashqari, mini futbol maydonchasi qurildi. U

Yoqimtoygina Zahiriddinning tili chiqib, shunday bijildoq bo'lganki, uning so'zlarini eshitgan odam kulaverib yumalab qoladi. So'rayveradi, so'rayveradi... Juda fikrehan. Oqshomlari ayajonisi, agar Toshkandan mehmon bo'lib kelib qolsa, Esandavlatbegim momosi unga ertaklar aytib berishadi. Dadasining onasi - Sultonimbegim bo'lsa bittayam ertak aytib bermagan.

Mana bugun ham tashqarida avji qahraton qish, hammayoq qor, izg'irin tinmay xushtak chaladi.

Shunday qish-qirovli kunda boshqalar qani deysizmi? Hukmdor otaning ko'z qiymas beklaridan birining ayoli, Qutlug' Nigorxonimning ham qiyomatli dugonasi hisoblanmish bemor vafot etib qolibdi. Shunga er-xotin ma'rakaga ketishgan. Bu yerda keng qo'rg'onda esa Toshkandan kelgan Esandavlat begim, Xonzoda opasi va Zahiriddin qolishgan. Opasi o'z bo'lmasida. Kitob varaqlayaptimi, kashta tikyaptimi, kim bilsin? Momo bilan Zahiriddin mehmonxonada o'tirishibdi. Bu yer kengina bo'lsa ham, uy ichi issiq. Kechqurun emasmi, Zahiriddin saksovul cho'g'i bilan bozillatilgan qalin ko'rpalik sandalga kirib, momosining shunday yonginasida yotib olgan. Ko'zchalari munchoqdek yaltiraydi. Yuqori lablari ustida mildir-mildir ter, mayin qora sochlari buvisining barmoqlari orasida. Momojonining bag'ri muncha taftli-ya? U bejirim lablarini bir yalab olib, buvijoniga yalt etib qarab qo'ydi. Nimalar haqidadir xayol suryapti momo. «Boshqa mahal sursalar ham bo'ladi-yu xayolni», shu fikrni ko'nglidan o'tkazib, bolajon savol berishni boshlab yubordi. Boyadan beri chehrasiga qarab turib, sevimli buvisi qarib borayotganini payqadi:

- Buvi, buvi odam nega qariydi?

- Yoshlikning qadriga yetsin uchun-da, bolajonim. Bir zamonlar qanday sho'x, quvnoq qizaloq edim. U davrlar daryoda oqib ketdi...

- Voy, daryoda? Suvdami?

- Yo'q, bolam, umr daryosini aytyapman. Umr ham daryoga o'xshaydi...

- Zahiriddin momosining bu gapini yechilmagan tugundek deb biladi, aqli yetmaydi. O'ylab turib boshqa savol beradi:

- Buvi, buvi yaxshi odamlar ko'pmi, yomonlarmi?

- Albatta yaxshilar ko'p-da. Yaxshilardan aylanay.

Agar yomonlar ko'p bo'lsa, dunyo ostin-ustun bo'lib ketardi. Undayidan xudoning o'zi asrasin. Zahiriddin shiftga boqib yotib, birdan o'y surib qoladi. Yana nima deb savol bersam ekan? Momosi bilag'on. Hammasiga javob bera oladi. Ha, topdi, topdi.

- Buvi, buvi nega odamlar goh yig'laydi, goh kuladi?

- Hayot achchiq ham chuchukdan iborat-da, bolajon. Achchiq yig'latadi, chuchugi kuldiradi. Sen hali buni yaxshi tushunmaysan. Hayoting, ko'rgiliklaring oldinda.

- Nega tushunmas ekanman? Ko'z yosh to'kib, yig'laganlarini ham, qah-qah otib kulganlarini ham ko'rganman-ku.

- Xo'p, donoginam, xo'p. Senga bas kelib bo'larkanmi?

- Endi aytinch, buvi, nega bir xil odamlar boy, o'ziga to'q, orzu havasli, bir xillari bo'lsa kambag'al, uylari huvillagan, non-oshga topsa, kiyimi yupun. Nega

G'iyos KOMILOV

Bobur Mirzo bolaligi haqida hikoyalar

shunaqa-ya?

- Senga qandoq tushuntirsam ekan? - momo

nabirasiga

quyuqqina

qoshlari

ostidan boqib,

o'y surib qoldi. Keyin esladi: - Ha, qani, barmoqlaringni yozib tik qilib ko'rsatgin-chi menga.

- Mana, - jajji kaftchasini buvisiga qaratdi Zahiriddin.

- Qara. Biri uzun, biri qisqa, past-baland, shundaymi? Besh qo'l teng emas ekan-da?

- Ha, to'g'ri.

- Endi buk-chi barmoqlaringni.

- Mana... Voy, momo, ular barobar bo'lib qoldi-ku, - hayratlandi nabira. - Bosh barmog'im bo'lsa ularning ustida.

- Ha, ana. Bundan chiqdi ollohning oldida boy ham, kambag'al ham bab-barobar ekan. Bosh barmog-hukm yurituvchi shunga qarab ish qilishi zarur ekan: Uqdingmi?

- Uqdim. Yana bir narsaga hayronman. Nega har tomon eltuvchi yo'llar tep-tekis emas, g'adir-budir, past-baland, o'ydim-chuqur. Nega shunday?

- Qaydan bilasan bunaqaligini?


- Samarqand borg'onimizda ko'rganman.

- Unday bo'lsa bilib ol. Odamlar yo'l mashaqqatini tortib, sokin hayotning qadriga yetsinlar uchun. Yana bormi so'raydiganing?

(Davomi bor).

TOJ HAQIDA ERTAK

SO'Z HAQIDA NIZOMIY



Qalamki, bu hayotda tebranar ekan ilk bor
So'zdan yozdi. Birinchi harfdan bersang e'tibor,
Yashirin pardasini ochgan zamon bir onda
So'z bo'ldi jilvalangan ilk go'zal jahonda.
So'z yurakka: - Javob ber menga - demasa aslo,
Tirik jon bo'lmas edi, balchiq badanga ato.
O'shandan buyon qalam yozuv yozdi, dur sochdi,
Bu dunyoning so'zini ilk bora so'z-la ochdi.
Faqat so'z-la taraldi bu olamning shuhrati,
So'z haqda ko'p so'zlandi, ozaymadi qiymati.
So'z ishqning lug'atida o'z jonimizdir bizning,
Biz so'zmiz, bu tan esa ayvonimizdir bizning.
Tug'ilgan har o'y, hayol, - bunga yo'qdir e'tiroz, -
Etdi so'z qushlarining qanotlarida parvoz.
Kechsa olam kunda bir yangilik etar bunyod,
So'zdan o'tkir va nozik narsa etolmas ijod.
Butun fikrlar boshi va raqamlar oxiri
So'zdir, yodingda saqla, bu ham dunyoning siri.
Tojdorlar faqat so'zni toj sohibi bilganlar,
Ba'zilar buni o'zga yo'sin talqin qilganlar.
Goh so'zning shuhratini bayroqday ko'taralar,
Goh so'zga qalam ila ming bir bezak beralar.
So'z qo'lda bayroqdan ham ko'proq qozonar zafar,
O'lkalarni qilichdan ilgariroq zabt etar.
So'z xalparastlarga nurini sochmasa ham
Yuzidagi pardani osonroq ochmasa ham,
Uning mangu oshig'i, jazmani biz bo'lamiz,
Yolg'iz u deb yashaymiz, yolg'iz u deb o'lamiz.
Barcha sekin yurganlar undan bir taft tortdilar
Shoshqaloqlar faqat suv topib, har yon chopdilar.

Harobazor dunyoda obod so'zdir, bu so'z haq,
Zo'rlik hokim dunyoda ozod so'zdir, bu so'z haq.
Mundoq olib qarasang, so'z aslida rangsizdir,
Ta'rifin qilay desang, biron tiling ojizdir.
So'z yurakda, ko'ngilda bayroqdek ochilgan dam
Ortiqcha bo'lib qolar u yerda til va qalam.
Agar so'z jon ipini yigirmasaydi bir on
Bas, kalava uchini qayerdan topardi jon?
... Savdogar bizning so'zni olar ekan bir zamon
So'z sarrofi oldiga qo'ydi oltin yonma- yon.
So'rди: «Eski oltinmi, yangi so'zmi yaxshidir!»
So'z sarrofi so'yladi: «So'z dunyoning naqshidir!
So'z elchisi har qanday yo'ldan bemalol ketar,
So'z qilgan ishni hech kim qila olmas u qadar...»
So'zning yonida kumush tuproqdir, tuproqqa xos.
Oltin esa iblisdir! Oltin nomi bor xolos.
«... So'zdan boshqa yuqori to'rga o'tadigan yo'q.
Jahon faqat so'zniki, inkor etadigan yo'q.
Qalb so'zi qudratini hali bilmasdan burun
So'zni sharhlash ortiqcha, bunday sharhlash noo'rin.
Dunyo turguncha tursin, tegma so'zga, jar solsin,
Nizomiyning ismi ham so'z-la poydor qolsin...»

Miraziz A'ZAM tarjiması.

Sizning fikringiz

Umida TOG'AYEVA:

Maktab bizniki. Uni ozoda saqlash bizning burchimiz. Farroshlarga esa ish qoldirmasligimiz kerak.

Ayrim tengdoshlarim, «menga nima, kerak bo'lsa tozalashsin», deb ochiq-oydin aytishadi. Buni mendangasalik deb tushunaman.

Malika

ABDUVOHIDOVA:

Aytishadi-ku, «O'zing yashagan joyni toza va ozoda tut», deb. Men ham bu fikrga qo'shilaman. Faqat dars hisobiga emas. Darsdan so'ng yoki tanaffus vaqtlarida

supurish-sidirish ishlari bilan shug'ullanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Alishev ISOMIDDINOV:

Mening fikrimcha, maktabni farroshlar tozalagani ma'qul. Buning uchun davlatimiz ularga maosh ajratgan.

To'g'ri, ba'zi o'quvchilar tozalikning qadriga yetishmaydi. Shuning uchun ham har hafta yakunida bir marotaba shanbalik o'tkazilsa,

foydadan holi bo'lmasdi.

Xurshida HUSANOVA:

Har bir o'quvchi o'zi uchun mehnat qilishi kerak. Bilim dargohimizni farroshlar emas, o'zimiz orasta qilib

band bo'lib, darslarga ham o'z vaqtida qatnasholmaydi. Bu esa ba'zan o'qituvchi va o'quvchilarning noroziligiga olib keladi.

Menimcha, hafta yakunida ijtimoiy mehnat soatlari qo'yilishi kerak. Bu soatlarga o'quvchi albatta tayyor bo'lib keladi. Shunda ular farrosh

mehnatining qadriga yetishni ham

o'rgansa ajabmas.

Dilrabo BOBONOROVA:

«O'z uyingni o'zing ozoda saqla». Bu gap bejizga aytilmagan. Maktab ham bizning uyimiz. Shunday ekan, uni o'zimiz toza tutishimiz zarur. Farroshning mehnatiga o'rin qolmasin. Balki shunda partalar tekis, oynalar but, sinf xonalari ozoda, maktab hovlisi toza turar.

Dilorom ABDULLAYEVA,
Respublika Nafis san'at litseyining
9- «A» sinf o'quvchisi.



Birkuni sinfrabarimiz ertaga shanbalik, deb e'lon qildilar. Barcha o'quvchilarning ishtirok etishlari shart, deb qo'shib qo'ydilar.

Ma'lumki shanbalikda atrof tozalanadi, sinflar, oyna va eshiklar yaxshilab yuviladi. Xullas hammayoq qaytadan yangilanadi. Bu, albatta, yaxshi-da.

Biroq... dars vaqtining hisobiga maktab atrofi-yu sinf xonalari tozalash ayrim o'quvchilarga yoqmasligi tabiiy. Ba'zan ular: «Biz maktabga o'qigani kelganmiz, tozalash ishlarini farrosh bajaradi», deyishsa, ba'zilar buning aksini aytishadi.

turishimiz kerak. Shunda tozalik uzoq saqlanadi, deb o'ylayman.

Gulbahor ABDULLAYEVA, o'qituvchi:

Sinf xonalari-yu maktab hovlisini farroshlar tozalagani yaxshi. To'g'ri, o'quvchilar har kuni sinfda navbatchi bo'lishadi. Lekin ular maktab tozaligi uchun to'liq javobgar degani emas-da.

Gohida o'quvchilar kun bo'yi navbatchilik bilan



TALABGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

3 - topshiriq.

Bozorda narxlarning oshishi yoki tushishi, talabning o'zgarishiga qanday ta'sir qilishini sizlar bilan tahlil qilib ko'rdik. Kelinglar, endi talabning o'zgarishiga narxdan boshqa omillarning qanday ta'sir qilishini quyidagi vaziyatlar asosida yechimini topishga harakat qilaylik:

1 - vaziyat: «Sherroc» qo'shma korxonalar bolalar etiklarini aprel oyidan boshlab 30 foizga arzon narxda ulgurjisiga sotishga qaror qildi.

Savol: Qo'shma korxonalar nima uchun tovarlarni arzon narxda sotishga qaror qildi? Tovarlariga talab ko'paydimi? Nega? Javobingizni asoslang:

2 - vaziyat: Vazirlar mahkamasining 187-sonli qaroriga asosan oktabr oyidan boshlab barcha davlat budjetiga qarashli korxonalarda ishlovchilarning oylik maoshlari 20 foizga oshirildi.

Savol: Ushbu qaror bozordagi tovarlarga bo'lgan talabga qanday ta'sir ko'rsatadi? Nega? Fikringizni asoslang:

3 - vaziyat: «N» shahri aholisi 2000-2005 yillarda 15foizga ko'payishi kutilmoqda.

(yig'ilish materiallaridan)

Savol: Shaharda qaysi tovar va xizmatlarga talab ko'payadi yoki kamayadi? Javob:

4 - vaziyat: «Osiyo damlamasi» salomatlik uchun foydali ekanligi haqida reklama berila boshladi. Odamlarning «damlama»ga bo'lgan talabida o'zgarish bo'ladimi? Nega?

5. Quyida berilgan 2 xil holatning talabning o'zgarishiga qanday ta'sir etishini tahlil qiling va javobingizni asoslang:

1-holat: «Ma'danli suv» narxi 20 foizga oshirildi.

Savol: Qaysi chanqovbosdi ichimliklarga sizning talabingiz ko'payadi? Nega? Javob:

2-holat: Ko'ylak narxi 15foizga tushirildi.

Savol: Tugmaga bo'lgan talab o'zgaradimi? Nega?

Iqtisodan saboqlar

6. Talabga ta'sir qiluvchi qanday omillarni o'rgandigiz. Yana qanday omillarni bilasiz? Sanang. Xulosa qiling:

Manzilingiz va ism-sharifingiz, maktabingiz, sinfingiz:

O'qituvchingiz ism-sharifi:

TALABNING EGILUVCHANLIGI

4 - topshiriq:

Narxning o'zgarishi talab miqdoriga qay darajada ta'sir etishiga qarab, talabni egiluvchan yoki noegiluvchan deb ajratish mumkin?

Talabning egiluvchan yoki noegiluvchanligini qanday qilib aniqlash mumkin?

Agar narxning o'zgarishi tovarga bo'lgan talabning o'zgarishiga kuchliroq ta'sirini tegizsa, bu holatda talab egiluvchan bo'ladi. Agarda, narxning o'zgarishi tovarga bo'lgan talabning o'zgarishiga unchalik katta ta'sirini tegiza olmasa, bu tovarga talab noegiluvchan bo'ladi.

Demak, tovar egiluvchan bo'lsa, tovar narxining oshishi, tovarni sotishdan tushadigan umumiy pul miqdorining kamayishiga olib keladi yoki tovar narxining kamayishi, tovarni sotishdan tushadigan umumiy pul miqdorining oshishiga olib keladi.

Tovar noegiluvchan bo'lsa-chi?

Bu holatda, tovar narxining oshishi, umumiy pul tushumining miqdorining oshishiga, tovar narxining tushishi, umumiy sotuvdan tushadigan pul tushumining kamayishiga olib keladi.

Masalan:

1) Kartoshkaning narxi 200 so'mdan 240 so'mgacha oshdi, natijada kartoshkaga bo'lgan umumiy talab 25 tonnadan 20 tonnaga kamaydi.

a) Oldingi holatda: $25 \text{ tonna} \times 200 = 5\,000\,000$ so'm daromad olingan.

b) Keyingi holatda: $20 \text{ tonna} \times 240 = 4\,800\,000$ so'm daromad olingan, demak umumiy pul tushumi narx

oshishi sababli kamaygan.

Demak, kartoshka narxi 20foizga ($240:200 \times 100$ foiz) oshirilganda, unga bo'lgan talab egiluvchan bo'ladi.

2) Kartoshkaning narxi 200 so'mdan 230 so'mga oshirilganda, kartoshkaga bo'lgan umumiy talab 25 tonnadan 22,5 tonnaga kamaydi deylik.

Bu holatda: a) $25 \text{ t} \times 200 = 5\,000\,000$ so'm.

b) $22,5 \text{ t} \times 230 = 5\,175\,000$ so'm.

Kartoshka narxi ($230:200 \times 100$ foiz) 15foizga oshirilganda, unga bo'lgan talab noegiluvchan ekan, sababi kartoshka sotishdan tushgan umumiy pul tushumi kartoshka narxi oshishiga qaramay ko'paygan.

Talab egiluvchanligini nima uchun bilishimiz kerak?

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqaruvchi narxni oshirish hisobiga emas, balki narxni arzonlatish orqali tovar miqdorini ko'paytirish hisobiga daromadini ko'paytirishga harakat qilishi lozim. Narxni oshirish zarurati lozim bo'lib qolganda esa, uni oshirish me'yorini bilishi kerak.

I. Quyidagi vaziyatlarni tahlil qiling:

1 - vaziyat: Olmaning narxi 500 so'mdan 600 so'mga oshdi, talab miqdori 10 tonnadan 8,5 tonnaga kamaydi:

Savol: Talab egiluvchanmi yoki noegiluvchanmi, aniqlang.

Javobi:

2-vaziyat: Olmaning narxi 500 so'mdan 650 so'mga oshdi, talab miqdori 10 tonnadan 7 tonnaga kamaydi.

Savol: Talab egiluvchanmi yoki yo'qmi, aniqlang.

Javobi:

3 - vaziyat: Olmaning narxi 500 so'mdan 450 so'mga arzonlashdi, talab miqdori 10 tonnadan 14 tonnaga oshdi.

Savol: Talab egiluvchanmi yoki yo'qmi, aniqlang.

Javobi:

Yuqoridagi 3 ta vaziyatga asoslanib xulosa qiling.

Savol: Olmaning narxini necha so'm qilib belgilangani ma'qul? Nega? Asoslang:

II. Quyidagi vaziyatlar berilgan, siz shu vaziyatlarda talab egiluvchanmi yoki noegiluvchanmi, aniqlang va qisqacha izohlang.

AZIZ O'QUVCHILARI

Biz bilan birga «Iqtisodiy bilim asoslarini» o'rganishni boshlaganingizga ham ancha yillar bo'lib qoldi. Birinchilardan bo'lib o'rganishni boshlagan akalaringiz va opalaringiz, hozirda oliygohlarda iqtisodni chuqur o'rganish bilan shug'ullanishmoqda. Mamlakatimizning hamma maktablarida qo'llanilayotgan bizning muallifligimizdagi «Iqtisodiy bilim asoslari» darsliklari ularning taklif va mulohazalarini hisobga olgan holda yaratib, hukumatimiz qarori bilan barcha umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilmoqda. «Iqtisodiyot» fani ham maktab o'quv rejasida o'z o'rnini topdi. Albatta bu amalga oshirilayotgan ishlar, sizlarga «Iqtisodiy bilim va tadbirkorlik asoslarini» o'rganishingiz uchun dastlabki qadam (bosqich) bo'lib hisoblanadi.

Aziz o'quvchilar! Iqtisodan saboqlarimizni ilg'ab oling va jumboqlarga javob izlang!

Mualliflar:

E. SARIQOV, B. HAYDAROV,
Q. QAMBAROV.

Tahririyatdan:

Qarddon yosh iqtisodchilar! Topshiriqlarni gazeta varaqasiga to'ldirib, tahririyatimizga jo'nating. Topshiriq olish yangi yilda ham davom etadi. G'oliblarga quyidagi sovg'alar beriladi:

1-o'rin: Televizor.

2-o'rin: Velosiped.

3-o'rin: Magnitofon.

Yuqori ball to'plaganlarga:

O'n dona pleyyer;

Iqtisodga oid yangi kitoblar;

«Tong yulduzi» gazetasining faxriy yorlig'i beriladi.

Shoshiling, g'oliblarni Navro'z bayrami arafasida «Tong yulduzi» gazetasini tahririyatida kutamiz.

Vaziyatlar	Izoh
1. Nonning narxi 10 foizga oshdi.	
2. Tamaki mahsulotlari narxi 30 foizga oshirildi.	
3. Avtotransport xizmati haqi 100 so'mdan 130 so'mga oshdi. Talab miqdori 500 donadan 400 donaga kamaydi.	
4. Muzqaymoq narxi 100 so'mdan 130 so'mga oshdi. Talab miqdori 500 donadan 400 donaga kamaydi.	
5. Benzin narxi 30 foizga oshirildi.	



Sirtqi to'garak

Shoh Nabussan halol xazinachiga sira yolchimas edi. Uning barcha xazinachilari o'g'rilik qilib, o'z vazifalaridan ozod etilar edi. Shunda shoh Nabussan vaziri Zodihdan maslahat so'radi. Vaziri Zodihi: «Olampanoh, barcha xazinabozlikka da'vogarlarni saroyning katta mehmonxonaga to'plashni buyuring», - debdi.

Katta mehmonxonaga kirish uchun shohning barcha boyliklari saqlanadigan dahlizdan o'tilar edi. Podshoh amri vojibdir. Taklif etilganlarning barchasi katta saroy mehmonxonasiga yig'ildi. Shunda vazir ularga raqsga tushishni buyurdi. Hech kim, hech qachon bunaqangi g'aroyib raqsn

ko'rmagan

SOFDIL XAZINACHI

edi. Chunki,

raqqoslar boshini egib, gavdasini bukib,

qo'llarini yoniga yopishtirib o'ynar edi.

«Qanday firibgarlik!», - dedi sekingina Zodihi.

O'ynayotganlar ichida faqat bir kishi boshini baland ko'tarib, gavdasini tik tutib, qo'llarini ikki tomonga cho'zib, viqor bilan yengil qadamlar tashlab o'ynardi. «Oh! Halol odam! Haqiqiy chin odam!», dedi Zodihi.

Shoh Nabussan esa bu ajoyib raqqosni bag'riga mehr bilan

bosib, uni o'zining xazinaboni qilib tayinladi.

Qolgan da'vogarlarni esa jarima to'lash bilan jazoladi.

Nigora SHERMATOVA,
Jizzax viloyati, Zafarobod
tumanidagi 8-umumiy o'rta
ta'lim maktabining 10- «A» sinf
o'quvchisining fransuz yozuvchisi
Volterning «Zodihi» afsonasidan
tarjimasi.

**Assalomu alaykum tahririyat xodimlari! Biz
sevimli «Tong yulduzi»ning eng yaxshi do'sti, sadoqatli
gazetxonimiz.**

**Kelajakda jurnalist bo'lishni orzu qilamiz. Bilamiz, jurnalist bo'lish uchun
ne-ne qiyinchiliklarni, mashaqqatlarni sabot bilan yengib o'tish kerak.
Shuning uchun ham orzumizga yetish yo'lida qo'limizdan kelgancha harakat
qilmoqdamiz. Sizlarga mehnatlarimiz mahsuli, qalbimizning qo'ri bilan
yaratilgan ijod namunalarimizdan yubormoqdamiz. Agar ushbu ijod
gulshanidan uzgan g'unchalarimiz sevimli gazetamizda
chop etilsa, behad xursand bo'lar edik.**

ONA

Shu olamda eng aziz,
Mo'tabarsiz onajon.
Boshingiz omon bo'lsin,
Sizga sadqa mingta jon.
Bir bor xo'rsinib qo'ysam,
Parvonasiz boshimda.
Siz jonimga payvandsiz,
Mangu bo'ling qoshimda.

TILAK

Bo'lmasin mayli boylik,
Bo'lsin doim omonlik.
Yoshu qari tilagi
Kuchga to'lgan bilagi.
Osmon musaffo bo'lsin,
Dunyo gullarga to'lsin.
Ozod nafas olishsin,
Yosh-qari kulib yursin.
Dunyo to'lsin shodlikka,
Kulgu to'lsin borliqqa.
Dillar quvonchga to'lsin,
Bolalar omon bo'lsin.

Aziza QODIROVA,

Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumani, «Sharq yulduzi» jamoa xo'jaligidagi
48 - o'rta maktabning 6-sinf o'quvchisi.

SUVNI IFLOS QILMAYLIK

Ibratli hikoya


Yo'lida ketayotib, bir voqeaning guvohi bo'ldim. Uch-to'rt bola ko'chalarni supurayotgan ekanlar. Yo'lakni tozalayotganlari tahsinga sazovor, biroq ular axlatni ariqqa qarab supurishardi. Buni ko'rib, bir kekxa boboning jahli chiqib ketdi. «Suvni iflos qilma, bolam», deya tanbeh berdi. Bolalar boboga e'tibor berishmadi. Otaxonning qordek oppoq soqollari o'z-o'zidan silkinib, qo'llari qaltiray boshladi. Keyin asta so'zlay ketdi:

- Biz urush davrida frontda uch kun qamalda qolganimizda tashnalikdan juda qiynalganmiz. Suvsizlik madoringni quritar ekan. Tinkamiz qurib, holdan qolib, vatanimizdagi ariqlarda oqib yotgan zilol suvlarni ko'z oldimizga keltirgandik. Nasib qilsa, vatanimga borib, ariqdagi suvlardan sipqoraman, deb niyat qilgandik. Urush tugab, uyga kelgach, qonib-qonib suv ichdim. Bu gaplarga ham ko'p yillar bo'ldi. Hozir suvni iflos qilganlarni ko'rsam, tutoqib ketaman, - dedi-da, yo'lida davom etdi.

Bolalar boboning hikoyasidan karaxt bo'lib qolgan edilar. Ular o'zlar uchun yetarlicha xulosa chiqardilar, deb o'ylayman. Darhaqiqat, suv hayot manbai ekan, aziz tengdoshlarim, suvning qadriga yetaylik!

Gulruh XUDOYBERDIYEVA,
Navoiy viloyati, Navoiy tumanidagi
9-o'rta maktabning 11- «A» sinf o'quvchisi.

O'quvchim! Men seni juda yaxshi ko'raman. Qo'lingga olishingni, sahifalarimni bir-bir varaqlashingni qanchalar kutganimni, qanchalar sog'inganimni bilsang edi. Stoling ustida seni intizorlik bilan kutib, unsiz yig'iganlarimni, nola chekib, ko'z yosh to'kkanlarimni tasavvur etgin-a?! Darichadan bobo quyosh iliq tabassum bilan boqib, ko'z yoshlarimni zarrin nurlari bilan quritayotganida, qalbim ezilib,



KITOB MONOLOGI

o'zimni

keraksiz buyumdek his etib xo'rlikim kelganini

bir ko'rsang edi. Ha, nega kulyapsan? Ishonmayapsanmi? Ishonmasang, sarg'aygan varaqlarimga, za'faron rangimga boq. G'amli kunlarimni yodga solguvchi yodgorlik emasmi ular?

Lekin men bugun baxtiyorman. Sababi, sababi sen meni qo'lingga olding. Yo'llaringga boqib sarg'aygan sahifalarimni varaqlashga tushding. Varaqlarim

shitirlashidan hayron bo'lyapsanmi? Hayron bo'lma. Bu shitirlash oddiy shitirlash emas, balki mening qah-qahamdir. Quvonganimdan xandon otib kulayotirman.

Bilaman, quchog'imga yashiringan sirsinoatlarni yecha olmaganingdan xafa bo'lyapsan. Ammo meni tashlab ketma, ortga chekinma. Orzuingga yetishishning yagona yo'li - mening quchog'imda. Bu yo'lni egallashingga o'zim yordam beraman, hamrohing bo'laman. Faqat sen olg'a intilsang bo'lgani.

Bilasanku men haqimda juda ko'p she'rlar bitilgan. Bunday she'rlarni eshitganimda qalbim ajib sururga, bir olam g'ururga to'ladi. O'qiganmisan, Abdurahmon Jomiy men haqimda shunday degandi:

**Kitobdan yaxshiroq do'st yo'q jahonda,
G'amxo'ring bo'lar g'amli zamonda.
U bilan qol tanho hech bermas ozor,
Joningga ming rohat beradi takror.**

Ko'rdingmi, men senga haqiqiy chin do'st bo'laman. Ne-ne olimu ulamolar, fozilu fuzalolar, shoiru shuarolar mening ko'magimda kamolotga erishishdi. Sening ham, orzuing ushahishiga yordam beraman. Faqat men bilan qol.

Oqqa ko'chiruvchi Sarvinoz HUSAINOVA,
Namangan viloyati, Chortoq tumanidagi
25-o'rta maktabning 11-sinf o'quvchisi.

Behzod maktabdan kelganida uyda hech kim yo'q edi. Biroq xontaxta ustida uchun tayyorlangan tushlik taxt edi. Behzod oynaiah jahonning murvatini yoqib, televizor ko'rgancha

PUSHAYMON

Voqeiy hikoya tamaddi qila

boshladi. Shu payt onasi ishdan keldi-da, o'g'liga tomdan o'tin olib tushishini, non yopmoqchi ekanligini aytdi. Qiziqarli multfilmni tomosha qilayotgan Behzodga bu yoqmadi.

Erinib, tomga chiqdi. Bir-ikki quchoq o'tinni yerga tashladiyu shosha-pishanarvondan tusha boshladi. U shoshganidan oyog'ini narvonga to'g'ri qo'ya olmadi, toyilib yiqilib tushdi...

O'g'lining ancha yo'q bo'lib ketganidan xavotir olgan oyisi non yasayotgan xamirini ham qo'yib narvon oldiga keldi. Yerdah Behzod cho'zilib yotardi. Uni turg'izib qo'ymoqchi edi, Behzod ingrab yubordi. Uning chap qo'li singan, o'ng oyog'i jarohatlangandi...


Bir necha kun to'shakka mixlanib qolgan Behzod onasining gapidan ko'ra multfilmni afzal ko'rganiga afsus chekdi. Bundan buyog'i faqat kattalarning gapiga amal qilishga ahd qildi.

Manzura ABDUJABBOROVA,
Andijon viloyati, Izboskan tumanidagi
15-o'rta maktabning 9- «B» sinf o'quvchisi.



VATAN

Dilimda bor mingta orzu,
Ko'nglimda oliy tuyg'u.
Omon bo'lingiz mangu,
Biz ham omon bo'laylik.
Shu Vatan jonlardadir,
Bu jo'shqin qonlardadir.
Baxtiyor onlardadir,
Mangu omon bo'laylik.





Mana, bolalarning zavqi-shavqiga qorbo'ron o'ynashga chaqirdim. sababchi bo'layotgan qish faslining ham Avazning chiqqisi kelmasa ham

BUNI ISTAMAGANDIM

bir oyi o'tib bo'ldi. Ko'cha-ko'yda majburladim. Ko'chamizdan mashina qorbo'ron o'ynayotgan, chana ko'p o'tardi. Avazga taklifimni aytсам, uchayotgan bolalarni ko'rsangiz, beixtiyor yo'q deyishi tayin edi. Shuning uchun zavqlanib ketasiz. Ularni o'rnida bo'lib ham oldin o'zim uchib ko'rsatdim. qolishni istaysiz. Avazning havasi kelsa ham, qo'rqayotgani shundoq sezilib turardi. Men ustidan

Men ham xuddi shu bolalar kabi juda sho'x edim. O'rtoqlarim bilan maktabga ketayotganda ham, uyga qaytayotganda ham qorbo'ron o'ynardik. Kamiga darslarni qilib bo'lib, yana ko'chaga chiqib ketardim. Eng yaqin do'stim Avaz bilan qorbobo yasash, bir-birimizni sirpanchiq uchirish, chanada tortish eng sevimli o'yinlarimizdan biri edi. Shunday o'ynab yursak ham bo'lardi-yu lekin bir kuni boshqa mahalla bolalarining mashinaga osilib sirpanchiq uchayotganlarini ko'rib, juda havasim keldi. Ortiqcha kuch ishlatmay, osilib olib ancha joygacha (mashina egasi to'xtab, bitta baqirguncha) mazza qilib uchishardi. Nega biz ucholmas ekanmiz, deb Avazni

Kechiring...



shundoq sezilib turardi. Men ustidan kulib, shunaqa qo'rqoqligingni bilmagan ekanman, dedim. Avaz uchishga ko'ndi. Uzoqdan oppoq «Jiguli» mashinasi ko'rindi. Ikkalamiz ikki chetda turib olib, mashina yaqinlashishi bilan unga osilib olishga urindik. Yon-verimizdan ham mashinalar g'uv-g'uv o'tib turardi. Shu payt Avaz, qo'lim og'rib ketdi, qo'yib yuboraman, dedi-yu mashinaning qattiq signali va... va Avazning «oyijon» deb chinqirgani eshitildi... U hozir uyda... Uch yil bo'libdiki, yurish, ko'rish baxtidan benasib. Men uning bu ahvoliga o'zimni aybdor deb hisoblayman. O'ylamay bosdim tikanni...

NODIR, Toshkent.

SOG'INCH

Bolaligim yodimga solib, Jaranglaydi hamon allangiz. Dilni chertgan kuyga jo'r bo'lib, Qalbda yangrar qo'shiq, yallangiz. Sog'inchlardan bezdi-ku yurak, Talpinadi faqat siz tomon. Keling dilga orom berguvchi, Ertaklardan so'ylang buvijon.

Yo'lingizga termulib deyman, Yaqin bo'ling yirog'ingizga. Mehringizdan uchqun beringiz, Nurga zor men - chirog'ingizga.

Gulruhbegim SAYFIDDIN qizi, Alisher Navoiy nomidagi Respublika Nafis san'at litseyi o'quvchisi.

1						2		
		10				11		3
					16			
	15			20				
				23		17	12	
9								
		19	22			21		4
8								
					18			
	14			13				
	7			6				5

Savollar: 1. Rahmdil. 2. Qizlar ismi. 3. Afrika davlati. 14. Poytaxt. 15. Kichik vatan. Haqiqat. 4. O'g'il bolalar ismi. 5. Ramz. 6. 16. ... orollari (Shimoliy Amerika). 17. Yakka Otning bolasi. 7. Nutq so'zlovchi. 8. hokimiyat. 18. Qobiliyat, ishchanlik. 19. Xizmatkor. 9. Chalkash yo'l. 10. Pastkash. Qush turi. 20. Botir. 21. Osiyo davlati. 22. 11. Boksdagi holat. 12. Rivojlanish. 13. Suriya poytaxti. 23. Fe'l.

«BANAN» SHIRINLIGI

Kerakli masalliq: 200 gr. margarin, 2 st. un, 1 st. smetana, 4 ta tuxum, 1 st. shakar, 1 ta banka quyultirilgan sut, 1 st. yong'oq, 1 ch/q. ichimlik sodasi.

Tayyorlanishi:

Margarinni qirg'ichdan chiqarib, un bilan bir xilda massa hosil bo'lguncha aralashtiriladi. Alohida idishga smetanani solib, ustiga soda, tuxum sarig'i solinadi va yaxshilab aralashtirilib, un bilan margaringa qo'shiladi. Yumshoq xamir qoriladi. Xamirni mayda zuvalachalarga bo'lib, 0,5 soatga ustini yopib muzlatgichga qo'yiladi.

Tuxum oqini shakar bilan ko'pirtirib olinadi. Quyultirilgan sutni ochmasdan 2 soat suvda qaynatib olinadi. Zuvalalarni muzlatgichdan olib, tuxum shaklida yoyib chiqiladi. O'rtasiga tuxum oqi va shakardan tayyorlangan masalliqdan bir qoshiqdan solib chiqiladi. Chetlarini birlashtirib, gaz patnisiga teriladi. O'rta olovda ko'tarilib, olovrang tusga kirguncha pishiriladi. Pishgach, issiqligida ustiga quyultirilgan suttan surib, yong'oq mag'izi sepib chiqiladi. **Yoqimli ishtaha!**

TURPLI SALAT

Kerakli masalliq: 200 gr. turp, 100 gr. yaxna go'sht, 3/4 ta tuxum, 1 ta piyoz, 0,5 bog' ko'k piyoz, 1 ta qizil sabzi, 0,5 st. q a y m o q, oshko'k, tuz, sirka.

Tayyorlanishi: Go'sht, tuxumni qaynatib olinadi. Turpni somoncha shaklida mayda qilib to'g'rab, suvi ajratiladi. Sabzini ham somoncha shaklida to'g'rab, ozgina sirka qo'shib, eziladi. Go'sht, tuxum, piyoz somoncha shaklida maydalab to'g'raladi. Ko'k piyoz va oshko'klarni maydalab to'g'raladi. Hamma masalliqni aralashtirib, ta'bga ko'ra tuz qo'shiladi. 0,5 soatga muzlatgichga qo'yiladi. Tayyor salatni likopchalarga solib, ustidan qaymoq quyiladi va dasturxonga tortiladi. **Yoqimli ishtaha!**

Go'zal ABDUSHUKUROVA, Toshkent shahar, Akmal Ikromov tumanidagi 116 - maktab o'quvchisi.



1. Dunyodagi maydoni jihatidan eng kichik davlat?

- A) Xitoy;
- B) Vatikan;
- S) Chili;
- D) Italiya.

2. Mendeleev davriy jadvalida nechta element mavjud?

- A) 108;
- B) 110;
- S) 109;
- D) 107.

3. Yerning aylanishini qaysi olim isbotlagan?

- A) Galileo Galiley;
- B) Isaak Nyuton;
- S) Blez Paskal;
- D) Avogadro;

4. Arastudan so'ng «Muallimi-soniy» nomi bilan qaysi mutafakkir shuhrat topgan?

- A) Ibn Sino;
- B) Forobiy;
- S) Beruniy;
- D) Farg'oniy.

5. Boburiylar saltanati necha yil davom etdi?

- A) 330 yil;
- B) 331 yil;
- S) 329 yil;
- D) 332 yil.

6. Pifagor teoremasining tuzilishi qaysi qatorida to'g'ri berilgan?

- A) $s^2 = a^2 + b^2$;
- B) $a^2 = b^2 + s^2$;
- S) $s^2 = a^2 - b^2$;
- D) $b^2 = s^2 - a^2$.

7. 4 iyul kuni qaysi davlat o'zining mustaqillik kunini nishonlaydi?

- A) AQSH;
- B) Angliya;
- S) Germaniya;
- D) Kanada.

8. O'rta Osiyoda qadimda nechta xonlik mavjud edi?

- A) 2 ta;
- B) 3 ta;
- S) 1 ta;
- D) 5 ta.

Tuzuvchi:

Nigina BO'RIXONOVA, Poytaxtimizdagi 154 - maktabning 9-sinf o'quvchisi.

ARALASH

TEST

Savollar: 1. Argentinalik hujumchi. 2. Braziliyalik yarim himoyachi. 3. Nigeriyalik hujumchi. 4. Yaponiyalik faol hujumchi bu 5. Senegallik eng kuchli himoyachilardan biri. 6. Delperoning vatani. 7. Hititoshi Nakata o'ynaydigan jamoaning nomi. 8. Svedenlik yarim himoyachi.

Tuzuvchilar:



Orzigul UTANOVA, Nodirjon SHOKIRJONOV, Surxondaryo viloyati, Muzrabot tumanidagi 14 - maktab o'quvchilari.

F	R	A	N	S	I	Y	A

RASMLAR KO'RGAZMASI

Assalomu alaykum tahririyat xodimlari.
Biz Bobur RAZZOQOV va Lola JUMAG'ULOVALar Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumanidagi 4-o'rta maktabda tahsil olamiz.

O'qishlarimiz juda yaxshi. Fanlarni a'loga o'zlashtirish bilan birga darsdan so'ng tumandagi Bolalar va o'smirlar ijodkorlik markazidagi «Tasviriy san'at» to'garagiga qatnashamiz. Chunki ikkalamiz ham rasm chizishga qiziqamiz. To'garak rahbarimiz Malika opa NURIMETOVA tasviriy san'at sirlarini o'rgatadilar. Biz kabi yosh rassomlarning ilk ko'rgazmasini tashkil etayotgan sevimli gazetaga rasmlarimizni jo'natishga ahd qildik.

Ona yurtim - oltin beshing
TONG Yulduzi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI, «KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOYIY HARAKATI, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» XAYRIYA JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa MUSURMONOVA,
Qahramon QURONBOYEV,
Feruz JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Po'lat MO'MIN,
Mukarrama MURODOVA,
Tohir MULLABOYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi» nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi» nashriyot uyi kompyuter bo'limida terib sahilalandi. Hajmi A-3, 2 bosma taboq. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida ofset usulida bosildi.

Korxonada manzili: «Buyuk Turon» ko'chasi, 41. Buyurtma № G- 55 Gazetani Ma'suda IRISNAZAROVA sahilalandi. Navbatchi: Ozoda TURSUNBOYEVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi № 000137
Manzillimiz: 700129, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-63-08
144-63-75

TARNOVDAGI SUMALAKLAR XO'ROZQANDIM

Derazadan mo'raladim dalalarga,
Chapaklarim favqulodda qildi olqish.
Ko'zim tushdi qaysi zamon bolalarga,
Xush kelibsan Vatanimga ey mehmon qish.


Ko'chadagi yaxmalaklar billur taxtim,
Tarnovdagi sumalaklar xo'rozqandim.
Lek boshlandi «tumor» degan eski dardim,
Xush kelibsan, bolalarga mehribon qish.

Oq sallalar kiyibdiku alpin tog'lar,
Oq ko'rpaga burkanibdi bog'u rog'lar.
Eng baxtiyor palla erur ushbu chog'lar,
Xush kelibsan dargohimga jonajon qish.

Dala-dashtda yakun topdi eng so'nggi ish,
Dehqonlarga ham qolmadi o'yu tashvish.
Omon chiqqin ey yalang'och, kekxa ildiz,
Mehribon, u, ildiz uchun qahramon qish.

Ma'rifat TEMIROVA,
Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz tumani,
Miraki shaharchasidagi
2-ixtisoslashgan maktab-internatining
9- «A» sinf o'quvchisi.

TOPISHMOQLAR




Dovdirab, kosaga bo'lganda oshiq,
Og'zingni yirtadi shu quruq ...

Unni qorib qilsalar ta'mir,
Tayyor bo'lar non uchun ...



Mevalar orasida bo'lsa ko'rik,
Ehtimol yutib chiqar zarrin ...

Bizning o'rmonlarga yot,
Ola-bula yo'l-yo'l ot...



Birovdan qochay deb sira to'kmas ter,
Hayvonot olamin shohi bo'lgan ...

Tishlaganni qo'ymas sog',
Suvdagi yashil ...

(q...)

Jahongir MIRZAALIYEV.

DIQQAT - MAKTAB!

Pol har kuni maktabga kechikib kelardi.



O'qituvchi norozi bo'lib undan so'radi:

-Nimaga sen har kuni kechikib kelasana, Pol?

-Bu mening aybim emas, har kuni kelayotganimda, maktab yo'lida «Diqqat-maktab! Astaroq yur!» degan yozuvni ko'raman va shunga amal qilaman,- deb javob berdi Pol.

RESTORANDA

Bir janob taomnomaga qaradi va ofitsiantdan so'radi:

-Nima uchun qovurilgan ikkita tuxum qaynatilgan ikkita tuxumdan qimmat turadi?

-Chunki, qaynatilgan tuxumni aniq sanash mumkin-da.



Nodir G'ANIYEV,

O'zMU o'zbek filologiyasi fakulteti talabasining fransuzchadan tarjimasini.

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. qochishibdi. Shu payt Qadim zamonda, bilmadim qay quyonlardan biri yiqilib tushibdi tomonda bir va do'stidan o'rmon bo'lgan "CHIN" DO'ST y o r d a m ekan. Bu yerda s o ' r a b d i . kuchli hayvonlar kuchsizlarga Ikkinchi quyon esa do'stidan ko'ra hamla qilar ekan. jonini afzal ko'rib, uni dushman

Bir kuni ikki quyon qo'liga qoldirib kelishib o'rmon ketibdi. «Chin do'st yaqinidagi qishloqqa boshingga kulfat sabzitergani borishibdi. tushganda sinaladi» Bir odamning degan maqol shundan tomorqasiga kirib, kelib chiqqan ekan. s a b z i l a r n i yig'ayotganlarida tomorqa egasi ularni ko'rib qolibdi va ketidan quvlay boshlabdi. Quyonlar Nargiza KARIMOVA, Shahar qo'shimcha ta'lim markazidagi «Yosh sabzilarni tashlab, o'rmon tomon jurnalistlar» klubi a'zosi